



# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2023-yil  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**  
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining  
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:  
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**  
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini  
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**  
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat  
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda  
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**  
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq  
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**  
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar  
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini  
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish  
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**  
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi  
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**  
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti  
sifatida ommaviy axborot vositalarining  
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**  
Intellectual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy  
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**  
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy  
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati  
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**  
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini  
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy  
asoslari

- 70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**  
Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**  
Advokatlar maqomi e'tibor markazida
- 79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**  
The new constitution of Uzbekistan:  
A catalyst for democratic advancement

UDC: 347.471(045)(575.1)

## OLIV TA'LIM TASHKILOTLARI AKADEMIK ERKINLIGINING KONSTITUTSIYA DARAJASIDA MUSTAHKAMLANISHI: ZARURAT VA ISTIQBOLLAR

**Yakubov Shuxrat Ummataliyevich,**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori,  
yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID:0000-0002-1512-9013  
e-mail: shuhrat.yakubov.uzb@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lim sohasidagi islohotlar, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari, konstitutsiyaviy islohotlar asosida oliy ta'limga e'tiborning kuchaytirilishi ilmiy tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oliy ta'limga oid alohida normaning kiritilishi, uning amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalariga akademik erkinlik berilishi, ularning boshqaruv hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatida mustaqil bo'lishining istiqbollari haqida mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, inson kapitali, akademik erkinlik, konstitutsiyaviy normalar, tashkiliy-huquqiy asoslar, oliy ta'limda boshqaruv, ilmiy-tadqiqot erkinligi.

## УКРЕПЛЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ СВОБОДЫ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА КОНСТИТУЦИОННОМ УРОВНЕ: ПОТРЕБНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

**Якубов Шухрат Умматалиевич,**  
доктор юридических наук, профессор, директор  
Центра исследований развития высшего образования  
при Министерстве высшего образования,  
науки и инноваций Республики Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье научно анализируются реформы в сфере образования, их организационно-правовые основы, усиление внимания к высшему образованию на основе конституционных реформ. Освещено внесение в Конституцию Республики Узбекистан специальной нормы о высшем образовании, её практическое значение. Также были высказаны мнения о перспективах предоставления академической свободы высшим учебным заведениям, их самостоятельности в управленческой и исследовательской деятельности.

**Ключевые слова:** высшее образование, человеческий капитал, академическая свобода, конституционные нормы, организационно-правовые основы, управление в высшей школе, свобода научных исследований.

## STRENGTHENING OF ACADEMIC FREEDOM OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AT THE CONSTITUTIONAL LEVEL: NEED AND PROSPECTS

**Yakubov Shukhrat Ummatalievich,**  
Director of the Center of Higher Education Development  
Research under the Ministry of Higher Education Science and  
Innovation of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

**Abstract.** This article scientifically analyzes the reforms in the sphere of education, their organizational and legal bases, as well as increasing attention to higher education on the basis of constitutional reforms. The introduction of a special norm on higher education into the Constitution of the Republic of Uzbekistan and its practical significance are highlighted. Opinions on the prospects of granting academic freedom to higher education institutions, their independence in management and scientific activity have also been expressed.

**Keywords:** higher education, human capital, academic freedom, constitutional norms, organizational and legal framework, management in higher education, freedom of scientific research

Ta'lim tizimi, uning bir qismi bo'lgan oliy ta'lim mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda juda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bu masalaga e'tibor kuchaydi. Oliy ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha harakatlar boshlandi.

Binobarin, **so'nggi olti yilda oliy ta'lim muassasalari soni 2,5 barobarga ortdi, ya'ni yangi 135 ta oliy ta'lim muassasasi tashkil etilib, hozirgi kunda ularning soni 215 taga yetkazildi. Respublikamizda 31 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiali, 65 ta xorijiy va nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi.** Oliy ta'limda raqobat muhitini yaratish, qamrovni kengaytirish maqsadida yangi o'quv muassasalari va ularning filiallari tashkil etildi.

O'tgan olti yilda oliy ta'limda qamrov 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar esa maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biriga oliygohda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi [1, 2-b.]. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki ta'lim qabul kvotalari oxirgi uch yilda 3,5 barobarga ortdi. Hududlardagi oliy ta'lim muassasalari uchun ilmiy-pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish maqsadida tayanch oliy ta'lim muassasalarida magistraturaga maqsadli qabul kvotalari joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga o'tkazildi. Bundan tashqari, **"Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga muvofiq, 41 ta oliy ta'lim muassasasiga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.**

Shuningdek, oliy ta'lim tizimidagi davlat ta'lim standartlari YUNESKO (UNESCO) tomonidan joriy etilgan "Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi" va "TXSK: Ta'lim va kasbiy tayyorlash sohalari" asosida qayta ishlab chiqilib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlandi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilib, ta'lim jarayoniga tatbiq etildi.

So'nggi olti yilda oliy ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik va grant dasturlari doirasida 8 636 nafar professor-o'qituvchilar xorijiy oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuborildi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida 7 385 nafar xorijlik mutaxassis o'quv jarayoniga jalb qilindi.

Oliy ta'lim tizimining vazifasi faqat talabalarga dars berish emasligini anglagan holda, oliy ta'lim muassasalari ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni ilmiy ishlarga,

yirik loyihalarga yanada ko'proq jalb etishga oid normalarni asosiy qonun darajasida mustahkamlash zaruriyati mavjud edi. 2023-yil 1-maydan boshlab kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu borada oliy ta'limga oid quyidagi mazmundagi yangi modda kiritilgani alohida e'tiborga molik:

*"51-modda.*

*Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli.*

*Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega".*

"Akademik erkinlik – o'z fikrini erkin bildirish huquqining tarkibiy qismi bo'lib, oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish va ilmiy-tadqiqot o'tkazish erkinligidir. Ushbu erkinlik o'quv jarayonini mustaqil shakllantirish, professor-o'qituvchilarni dars o'tish erkinligida, ilmiy tadqiqot mavzularini mustaqil tanlash va tadqiq etish, uning natijalarini nashr etish va tarqatish, professor-o'qituvchilar hamda ilmiy xodimlar akademik erkinligining cheklanmasligi kabilarda namoyon bo'ladi.

O'zini o'zi boshqarish – bu oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini tashkil etish va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy hamda faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha qaror qabul qilishdagi mustaqillik va javobgarlikni anglatadi" [2, 97–98-b].

Aholining keng qatlamlarini oliy ta'lim bilan qamrab olish masalasi Prezidentimiz tomonidan BMT minbarida ham ko'tarilgan va 2030-yilgacha O'zbekistonda 50 foiz yosh aholi oliy ma'lumotga ega bo'lishi rejalashtirilgan. Shu sababli oliy ta'limga oid norma Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Hamma ham katta pul to'lab, shartnoma asosida o'qiy olmasligi mumkin. Shu sababli Konstitutsiyada tanlov asosida davlat byudjeti hisobidan o'qish imkoniyati qat'iy belgilandi. Bu ijtimoiy davlatga xos xususiyatlardan

biridir. Bundan tashqari, oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi taqdim etildi. Nodavlat oliy ta'lim muassasalari ochilgani, xorijiy universitetlar filiallari soni ortayotgani, olis hududlarda ham universitet filiallari tashkil etilayotgani, davlat oliy o'quv yurtlariga tashkiliy va moliyaviy mustaqillik berilayotgani bu boradagi amaliy qadamdir.

Oliy ta'lim tashkilotlaridagi faoliyatning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish erkinligi, ta'lim yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta'lim tartibini belgilash bo'yicha qarorlar qabul qilishda mustaqil bo'lish huquqlari konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlangani ularga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bu davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari oliy ta'lim muassasalariga o'qishni olib borish uchun turli shartlar va ko'rsatmalar bera olmasligini kafolatlaydi.

Konstitutsiyaga ushbu normaning kiritilishi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanishiga, professor-o'qituvchilar hamda talabalarining o'quv va ilmiy faoliyati mustaqilligi ta'minlanishiga, ushbu sohaga tashqi aralashuvni cheklashga xizmat qiladi. Bugungi kunga qadar O'zbekistondagi 40 dan ortiq davlat oliy ta'lim muassasasiga akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan hamda bu boradagi ishlar davom etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalariga erkinlik berish qaroriga o'z-o'zidan kelingani yo'q. Bunga yillar davomida bosqichma-bosqich tayyorgarlik ko'rildi. Xususan, 2016-2017-yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilashga e'tibor qaratildi. 2017-yildan oliy ta'lim tizimida katta islohotlarga start berildi. Oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash, ularning vazirlik, idoralarga qarashli korxonalar, tashkilot, muassasalar bilan yaqin hamkorligini yo'lga qo'yish belgilandi.

2017-yilda Toshkent davlat yuridik universitetiga akademik mustaqillik berish bo'

yicha davlat rahbarining alohida qarori qabul qilindi. Universitetga o'quv reja dasturlarini ishlab chiqish, moliyaviy manbalarni shakllantirishda erkinlik berildi [3, 97–98-b.].

2019-yil hukumat qarori bilan yana 10 ta moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan oliy ta'lim muassasasi tajriba-sinov tariqasida o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. O'z navbatida, ular o'z mulkini boshqarish, qabul kvotalarini shakllantirish, professor-o'qituvchilarga ustamalar belgilash vakolatiga ham ega bo'ldi. 2020-2021-yillarda tajriba-sinovdan o'tkazilgan, butun dunyo oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishning fundamental prinsiplaridan biri bo'lgan akademik mustaqillik berish amaliyoti O'zbekistonda ham o'zini to'la oqladi.

Shu o'rinda akademik mustaqillik o'zi nima, degan savolga javob bersak. **Akademik mustaqillik oliy ta'lim muassasalari olimlarining o'z faoliyati, o'quv jarayonini tashkil etish, qabul kvotalarini belgilash, ilmiy tadqiqotlar olib borishda mustaqil bo'lishini anglatadi.**

Avvallari ularning faoliyatiga aralashishlar ko'p bo'lardi, buyurtma asosida ilm talab qilinardi. Akademik mustaqillik berilgan universitetlar talaba qabul qilishdan boshlab uning diplom olishiga qadar bo'lgan barcha jarayonni mustaqil tashkil qiladi.

Akademik mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalari o'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari, mutaxassislik ta'lim yo'nalishlarini o'zi shakllantiradi. Avvallari bu masalalarni Oliy ta'lim vazirligi, tarmoq kengashi ko'rib chiqishi talab qilinardi. Byurokratiya sabab fanning dolzarbligi yo'qolardi. Yoki o'qish davomiyligi muddatlarini belgilash, doktorantura bosqichi hamda kechki va sirtqi ta'limni joriy qilish uchun ham turli tashkilotlardan ruxsat olish kerak bo'lardi. Endilikda bu masalalarning barchasini akademik mustaqillik berilgan universitetlar mustaqil hal qiladi.

Umuman, fan, ilm va tadqiqotlar erkinlikni talab etadi. Ijodni nazorat qilish, bu

nazoratni turli institutlar orqali olib borish yangi va zamonaviy g'oyalar shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Albatta, bu o'rinda sohani umuman nazoratsiz qoldirish tushunilmasligi lozim. Oliy ta'lim tashkilotlarining tegishli qonun hujjatlari, davlat ta'lim standartlari asosida faoliyat olib borishi akkreditatsiya va attestatsiya jarayonlari orqali tartibga solinadi.

Professor **Metyu Endryus** (*Matthew Andrews*)ning ta'kidlashicha, institutsional mustaqillik oliy ta'lim muassasalariga talabalarni o'zlari belgilagan mezonlar orqali o'qishga qabul qilish, o'quv rejasini mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlash, talabalarga belgilangan malakalarni berish, xodimlarni mustaqil ravishda ishga qabul qilish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish kabi qator huquqlarni taqdim etadi. Ammo oliy ta'lim muassasalariga boshqaruvda institutsional mustaqillikning berilishi mutlaq mustaqillikni anglatmaydi. Balki davlatning oliy ta'lim muassasalarini to'g'ridan to'g'ri nazorat qilish funksiyasi cheklanganini nazarda tutadi. Biroq davlat umummajburiy standartlarning bajarilishi, moliyaviy ko'mak berish hamda ta'lim sifatini ta'minlash bilan bog'liq tartib-taomillar orqali oliy ta'lim muassasalarini bevosita boshqarish huquqini saqlab qoladi.

Akademik mustaqillik oliy ta'lim muassasalariga so'z va ijod erkinligini taqdim etish orqali ularning yanada taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Shu bois o'quv va ilmiy faoliyatni o'zida mujassam etgan akademik boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasasida o'quv va ilmiy faoliyat qanchalik to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, dars jarayoni va ilmiy tadqiqotlarning sifati ham shunchalik ortib boradi [4, 1-b.].

Moliyaviy mustaqillik har bir oliy ta'lim muassasasining hisob-kitob jarayonini o'zi amalga oshirishini anglatadi. Universitet qancha ko'p daromad topsa, shuncha tez rivojlanadi. Buyuk Britaniyadagi Kembrij, Oksford

universitetlari o'zi joylashgan hududdagi aholi punktlarini rivojlantirish bilan birga, ularni ish bilan ta'minlaydigan dargohga aylangan. Dunyodagi minglab katta-katta ishlab chiqarish subyektlari ortida ham universitetlarning olimlari turibdi. Shu orqali ilm tijoratlashtiriladi, foyda keltirish manbayiga aylanadi.

O'zbekistonda shu kunga qadar universitetlarning rivojlantirish jamg'armasidan foydalanish tartibini hukumat belgilab berardi. Deylik, professor-o'qituvchida yaxshi g'oya bor. Bu g'oya orqali u jamiyatga, ishlab chiqarish korxonasiga o'z xizmatini taklif qilishi mumkin. Ammo o'qituvchi bu xizmatidan tushadigan 100 so'm pulning 5 so'mini moddiy-texnikaga ishlatishi, 25 so'mini taklif etgan g'oyasi uchun olishi mumkin edi. Tabiiyki, bu professor-o'qituvchiga motivatsiya bera olmasdi. Shuning uchun aksariyat professor-o'qituvchilar g'oyasini oliy ta'lim muassasalarida emas, turli xususiy korxonalarda amaliyotga tatbiq etishni afzal ko'radi.

Endilikda g'oya muallifiga u keltirayotgan foydaning ulushi taqsimotini universitetlarning o'zi belgilaydi. Masalan, universitet professor-o'qituvchiga keltirgan mablag'ining 75 foizini berishi, universitet jamg'armasiga esa 25 foizini qoldirishi mumkin. Bundan buyon innovatsion rivojlanish jamg'armalarini ham oliy ta'lim muassasalaridagi kuzatuv kengashlari boshqaradi.

Shuningdek, mustaqillik berilgan universitetlar har bir sarflayotgan mablag'i bo'yicha o'zining rasmiy veb-saytida ochiq ma'lumot hisobotlarini e'lon qilib borishi lozim. Bu jamoatchilik nazoratida bo'lishini ham anglatadi [5, 10–15-b.].

Oliy ta'lim tizimi bilan bog'liq masalalarning Konstitutsiya darajasida belgilanayotgani ta'lim islohotlarining o'zgarmas va ortga qaytmas ko'rinish olishini ta'minlaydi. Ayniqsa, ta'lim muassasalariga akademik erkinlik berish masalasi – dunyo tajribasi. Ushbu huquqning kafolatlanishi oliy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur o'zgarishlar tufayli oliy ta'limga alohida e'tibor qaratish davlat majburiyatiga aylanmoqda. Har bir fuqaro oliy ta'lim olish orqali farovon hayot kechirishiga mustahkam asos yaratadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur o'zgarish bir xil andozaga tushib qolgan, eskicha qarashlar bilan ishlayotgan institut va universitetlarning zamonaviy tendensiyalar orqali rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Umuman olganda, oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining asosiy qonun darajasida mustahkamlanishi mamlakatimizda kelajak poydevori bo'lgan ta'limga yuqori darajada e'tibor qaratilayotganini namoyon qiladi. Bu omil kelgusida ilm-fan taraqqiyoti orqali mamlakatning iqtisodiy qudrati ortishiga va aholi farovonligi o'sishiga zamin yaratadi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasining rasmiy-veb sayti. <https://xs.uz>.
2. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2023-yil. – 180 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-apreldagi "Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbiri"

lari to'g'risida"gi PQ-2932-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 19-son, 335-modda.

4. Institutsional mustaqillik bu mutlaq mustaqillik degani emas. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi rasmiy veb-sayti. <https://devedu.uz/1850>

5. Xakimov R. Oliy ta'lim muassasalariga akademik boshqaruv mustaqilligi berildi. "O'zbekistonda oliy ta'lim" jurnali. 2022-y. № 1. -10-15-b.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** www.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.